

PEDAGOGIKA

2015/2

ilmiy-nazariy va metodik jurnal



Muassis:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Jurnalda pedagogika, psixologiya, o’qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o’zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma”si olingan va unga O’zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-qarori bilan ro’yxatga olingan.

Jurnal oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchilari, ilmiy xodimlar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tinglovchilari, magistrantlar, talabalariga mo’ljallangan.

Tahrir hay’ati:

SHARIPOV Shavkat (*bosh muharrir*)

Abdullayeva Barno

Adilov Po’lat

Adilova Saodat

Ashirboyev Samixon (*bosh muharrirning birinchi o’rinbosari*)

Begimqulov Uzoqboy

Beshimov Ro’zinazar

Boymetov Botir

Egamberdiyeva Nodira

Ergashev Dilshod

Ergashov Muhammadrasul

Fayzullayev Saidnosir

Fuzailova Gavhar

Ismoilov Omilxon

Isyanov Ravil

Jalolov Jamol

Komilova Nodira

Mamadazimov Mamadmusa

Matenova Yuliy

Mirqosimova Marg’uba

Mirxoliqov Zikrilla (*mas’ul kotib*)

Muslimov Nazrulla

Nurmuhammedova Laylo

Qahhorova Matluba

Qodirova Fotima

Safayev Nuriddin

Taxirov Jozil (*bosh muharrir o’rinbosari*)

Tolipova Jamila

Valiyeva Sirojiya

Xalilov Faxriddin

Xodjayev Begzod

Yuzlikayev Farid

Zufarov Sherzod

yechishga, ijodiy ishlashga, axborot makonida to'g'ri harakat qilishga, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi.

INTERNET JURNALLARDA MAQOLA E'LON QILISH USULLARI

Ziyadullayev D.Sh. (TDPU)

Ziyodullayeva G.E. (TATU)

Abstract

The given article discusses the methodology and directions of use of the open world information resources and ways of publication an article in the online journal.

Резюме

В работе раскрываются методика и направления использования открытого мирового информационного ресурса и методы публикации статьи в интернет журналах.

Tayanch tushunchalar: *Open Source, OpenDoar, kontent, ochiq axborot resursi, Doaj, Doab, Base Search, Dissercat.com.*

Butun dunyoda ta'lim sohasida kun sayin yangi texnika va texnologiyalar rivojlanishi bilan birga yangi-yangi resurslar yaratilib, foydalanuvchilarga taqdim etilmoqda. Foydalanuvchilar uchun internetda bepul va ochiq boy kolleksiyalar yaratilgan.

Open Source xizmati jahon axborot tizimida ta'lim rivojlanishining asosiy manbavi sifatida tan olinadi va zamonaviy xizmatlar ko'rsatadi. Bunga ochiq resurs turlari, undan foydalanish, ta'lim resurslarini olish va turli dasturiy ta'minotlar kiradi.

Jahon tajribasida bunday resurslardan faol ravishda foydalanayotganlarga bevosita internet xabarlarini orqali, mutaxassislar tomonidan tashkil etilayotgan xalqaro konferensiyalar orqali ham shohid bo'lyapmiz. Bu resurslar o'zining qimmatlilik va ilmiy darajasiga ega bo'lib, UNESCO tashkiloti tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga bepul foydalanish uchun taqdim etilgan. Ochiq resurslarning imkoniyatlari keng. Bunda resurslar bilan tanishish, internet jurnallardan maqolalarni o'qish va ko'chirib olish imkoni, shu bilan bir qatorda, barcha ilmiy izlanuvchilar uchun zarur bo'lgan ilmiy maqolalarni chop etish masalalarining ham o'z yechimi bor.

Ochiq axborot resurslariga OpenDoar, Doaj, Doab, Base Search, Dissercat.com va boshqalar kiradi. Ushbu resurslar o'z yo'nalishlariga ega, ya'ni Doaj ilmiy jurnallardan ochiq foydalanish uchun, Doab kitoblardan ochiq

foydalanish, dissertatsiyalar

Quyida etish usullari

OpenD mahsulotlarini

ochiq foydalanish xil va boy.

Asosan oziq-ovqat ta

tadbirkorlik va tibbiyot fani,

matematika va ijtimoiy fanlar

Bu struktura foydalanuvchilarga

tarmog'idan ulanish hamda

OpenD maydoniga saqlanadi

Interfeyslar iborasini kirish

batafsil ma'lumot

Maqolalar Mualliflar

maxsus talablar mumkin. Maqolalar

shart. Yuborilgan shartnoma orqali

talabnoma tasdiqlanadi.

Nashr uchun hay'ati sayti manzili, nashr

¹Быкова М. [аудиозапись л

²<http://www.op>

³<http://www.gr>

foydalanish, www.dissercat.com ilmiy faoliyat olib boruvchilar uchun dissertatsiyalar fondi hisoblanadi.

Quyida ochiq resurslardan biri bilan to'liq tanishtirish va maqola chop etish usullari haqida ma'lumotlarning tizimli bayoni keltirilgan.

OpenDoar ochiq resursi. OpenDoar xizmati OpenDoar personal mahsulotlaridan butun dunyo bo'yicha kafolatlangan sifatli fond ro'yxatidan ochiq foydalanish imkonini yaratuvchi tizimdir. Xizmat mahsulotlari juda xilmaxil va boy.

Asosan quyidagi sohalar bo'yicha resurslar yig'ilgan: qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat texnologiyasi, san'at va arxitektura, biologiya va hayot haqidagi fan, tadbirkorlik va iqtisodiyot, kimyo, yer va tabiat haqidagi fan, metodologiya va tibbiyot fani, tarix va arxeologiya, til va adabiyot, qonun va siyosatshunoslik, matematika va statistika, falsafa va din, fizika va astronomiya, umumiy fanlar, ijtimoiy fanlar, texnologiya va injeniring va boshqalar.

Bu strukturadan ko'rinib turibdiki, ochiq resurslar jamg'arilgan fond orqali foydalanuvchiga yetkazib beriladi. Ochiq resurslar saytiga xohlagan internet tarmog'idan kirish imkoni bor. Undan tashqari mobil aloqa xizmati orqali ulanish hamda turli til interfeyslari shakllantirilgan¹.

OpenDoar xizmatining sayti: OpenDoar.org internetning qidiruv maydoniga sayt kiritiladi va sahifaga interfeys yuklanadi².

Interfeysning qidiruv maydoniga "как опубликовать научную статью" iborasini kiritish orqali ilmiy jurnallarda maqola chop etish talablari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lamiz³.

Maqolani chop etish talablari:

Muallif o'zini qiziqtirgan jurnalda ilmiy materiallar chop qilish uchun maxsus talabnoma to'ldiradi. Talabnoma namunasini saytdan ko'chirib olish mumkin. Maqola ko'rsatilgan rasmiylashtirish talablariga qat'iy muvofiq kelishi shart. Yuborilgan talabnoma muallif va mas'ul tahrir hay'ati o'rtasida tuzilgan shartnoma orqali amalga oshiriladi. Ilmiy materialni chop qilishga yuborilgan talabnoma muallifning roziligi bilan shu shartnoma qoidalari asosida tasdiqlanadi.

Nashr uchun material elektron pochta orqali mas'ul muharrirga yoki tahrir hay'ati saytiga yuboriladi. Yuborilayotgan material uchun elektron pochta manzili, nashrning chiqish vaqti va muallif nusxasi grafasi, nashr uchun to'lovlar

¹Быкова М. Как опубликовать научную статью в зарубежном журнале? мастер-класс [аудиозапись лекции в МГИМО] // <http://iph.ras.ru/page13795185.htm>

²<http://www.opendoar.org/search.php>.

³<http://www.gramota.net/publication.html>

nashr sahifasida keltirilgan bo'ladi. Tahrir hay'ati kelib tushgan materialga talablar bo'yicha tezda ishlov beradi.

Muallifdan olingan talabnoma 2-3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi. Jurnalning tahrir hay'ati o'zi taqrizlarni amalga oshiradi va tashqi taqriz hisobga olinmaydi.

Agar material chop etishga qabul qilinsa, rekvizitlari to'ldirilgan to'lov qog'ozi bilan muallifga yuboriladi. Pochta bo'limidan yoki bank orqali maqola nashri uchun to'lov amalga oshirilsa, nashriyot nashrga tayyorlaydi.

Muallif o'qiyotgan yoki ishlayotgan tashkilotdan to'lov o'tkazilishi ham mumkin. Ayrim nashriyotlar to'lov qog'ozi nusxasini ham talab qilishi mumkin. Shuning uchun mualliflik nusxasi olgunga qadar to'lov nusxasi saqlanishi kerak bo'ladi.

Mualliflik nusxasini yuborishda faqat ro'yxatga olingan pochta orqali ishonch yorlig'i bilan yoki muassasa vakilining imzosi ostida yuboriladi.

Buyurtma qilingan jurnal muallifga yetib bormasa, qayta yana yuborish uchun qo'shimcha to'lov nashriyot tomonidan belgilanadi. Nashriyotda mualliflik nusxasi olti oygacha saqlanadi.

Saytdagi havolalar sinchiklab o'rganilganda ochiq resurs tarkibidagi faoliyat olib borayotgan ilmiy jurnallar ro'yxati ham keltirilganligiga guvoh bo'lasiz. Bu ro'yxat nashriyot tomonidan saytga qo'yilgan bo'lib, har bir jurnalning bosh muqovasi keltirilib, jurnal haqida qisqacha tavsif va jurnalga qaysi sohada material qabul qilinishi hamda sohalar ro'yxati keltirilgan.

Albatta, maqolani chop etish pulli xizmat hisoblanadi. Bu baho nashriyotlar tomonidan belgilanib, saytga kiritib qo'yilgan. Shu qatori yana bir narsaga e'tiboringizni jalb qilmoqchimiz. Maqola faqat ingliz tilida chop etiladi. Maqola tuzilmasi ham katta ahamiyat kasb etadi¹. Masalan: maqola nomi, mualliflar ro'yxati, maqola referati, kalit so'zlar, kirish so'zi, material tavsifi va ishning usullari, natijalar, muhokama, xulosa, ya'ni ishning masalalari va maqsadiga mo'ljallangan qismlari, adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Mantiqiy fikrlar bir-biriga bog'lanishi ham maqolaning saviyasiga ta'sir etadi.

Hozirda jahonda axborot resurslaridan nafaqat ochiq foydalanish, balki xalqaro ilmiy va reytingi (impact-factor) baland jurnallarda o'z maqolalarini, ilmiy ishlarini chop etib, shaxsiy resurslarini foydalanuvchiga taqdim etmoqda. Bunday faoliyat respublikamiz ilmiy izlanuvchilarini ham qiziqtirishi tabiiy.

¹Кириллова О.В. Как опубликовать статью в зарубежном рейтинговом журнале // [http://www.elsevier.com/locate/0167-4544\(2012\)0007-World-class-publication-April2012.pdf](http://www.elsevier.com/locate/0167-4544(2012)0007-World-class-publication-April2012.pdf).

The art
patriotism as

В стат
национальн

Tayan

hissi, milliy i

Jamiya

axloqiy kam

islohotlar bil

bir sharoitda

tizimining ba

borada O'zbe

haqiqati shun

odamgina b

yaratishimiz

qishloqlarimu

yashnatib tur

dasturi"da ha

anglashning o

shakllanayotg

intellektual m

Ma'lum

anglashi asc

merosdan, o'

oldidagi qa

tushuncha"³.

tarbiyalash h

¹Каримов И.А.

²Кадрлар тайё

пойдеворн. = Т

³Назаров К. Ф.

MUNDARIJA

BOSH MAQOLA

Ishquvvatov V.T., Ilhomov Z.A.

Tarix fakulteti odimlari.....2

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
PEDAGOGIK INNOVATIKA

Исянова А.Р.

Тренинговые занятия как форма
развития креативного потенциала
педагогических кадров.....5

Umarov B.M.

Kompyuter o'yinlari va bolaning psixik
salomatligi.....12

Rasulova F.F.

Jamoadagi agressiv holatlar va ularni
bartaraf etish yo'llari17

Ibragimova G.N.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikni
rivojlantirishning ba'zi masalalari.....24

Рахманова Ю.А.

Индивидуализация учебного процесса
с помощью метода проектов.....30МАТЕМАТИКА VA TABIIY-ILMIY
FANLAR TA'LIMI

Abduraimov Sh.S.

Kasb ta'limi o'qituvchilari tayorlash
sifatini ta'minlashda integratsiyalashgan
ta'lim mazmunining o'rni.....38

Eshpo'latov N.O., Rahimov F.O.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda
matnli matematik masalalardan
foydalanish.....45

Turgunbayev R.M., Raximov I.K.

Matematik analizni o'qitishda
paradokslardan foydalanish.....50

Nurillayev B.N.

Fizika o'qitish jarayonida o'zgaruvchan
tok zanjirlarining to'la qarshiligini
hisoblash metodikasi.....53

Valiyev A.N., Saydaliyev S.S.

Qirqimlarni o'rganish asosida maktab
o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini
shakllantirish.....61

Ergasheva G.S., Axmadaliyeva B.Sh.

Ta'limda veb-kvest texnologiyasidan
foydalanish mazmuni va strukturasi....67

Ziyadullayev D.Sh., Ziyodullayeva G.E.

Internet jurnallarda maqola e'lon qilish
usullari72IJTIMOIY VA GUMANITAR
FANLAR TA'LIMI

G'ulomov J.R., Jo'rayeva B.O.

Milliy g'urur va vatanparvarlik hissi
yoshlar ma'naviy kamolotining asosi
sifatida.....75

Xodjayev B.

Falsafiy-antropologik yondashuv asosida
o'quvchilarda tarixiy tafakkurni
rivojlantirishning ayrim metodologik
masalalari.....79

Ташкенбаева Д.А.

Проблемы адаптации использования
технологии критического мышления
на уроках истории.....86